

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/ 05.05.2023.Fil.02.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

NIZOMOV FARXOD MUSO O'G'LI

**LUQMON BO'RIXON, ABDUQAYUM YO'LDOSH QISSALARIDA
RAMZIYLIK VA XARAKTER YARATISH**

10.00.02 – O'zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Content of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
on Philological Science**

Nizomov Farhod Muso o‘g‘li

Luqmon Bo‘rixon, Abduqayum Yo‘ldosh qissalarida ramziylik va xarakter yaratish 3

Низомов Фарход Мусо угли

Создание символики и характера в повестях Лукмана Бурихана и Абдукаюма Юлдаша 25

Nizomov Farkhod Muso ugli

Creation of symbolism and character in the stories by Lukman Burikhan and Abdukayum Yuldash..... 51

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 56

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/ 05.05.2023.Fil.02.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

NIZOMOV FARXOD MUSO O‘G‘LI

**LUQMON BO‘RIXON, ABDUQAYUM YO‘LDOSH QISSALARIDA
RAMZIYLIK VA XARAKTER YARATISH**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B 2020.4.PhD/Fil1496 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Navoiy davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) ilmiy kengash web-sahifasining www.samdu.uz hamda “Ziyonet” axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xolmurodov Abduhamid

filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Nasirov Azimiddin Normamatovich

filologiya fanlari doktori, professor

Yo‘ldoshev Qozoqboy Boybekovich

pedagogika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc. 03/05.05.2023.Fil.02.11 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “___” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: (8366) 239-11-40, 239-18-92; faks: (8366) 239-11-40; e-mail: rektor@samdu.uz. Samarqand davlat universiteti, Bosh bino, 105-xona).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: (8366) 239-11-40, 239-18-92; faks: (8366) 239-11-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “___” _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil “___” _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

Sh.A.Hasanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

D.B. Xursanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

N.M. Muxitdinova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida qissa janri genezisi va tadriji, ulardagi xarakterlar evolyutsiyasi, adiblarning obraz tanlash mahorati, obrazlardagi simfonika, ijtimoiy muhit tasviri, makon va zamon harakati, milliylik va an'anaviylik, qahramon idrokiga urg'u berish, turg'un obyektlar sharhining kamligi, voqelikning keng qamrovda ochib berilmasligi, asosiy g'oyaning yetkazilishida obrazlarga tayanish jihatlarini ochiq ifodalashga qiziqish ortib bormoqda. Natijada keyingi davr qissachiligida syujet va kompozitsiyaning takomillashuvi, G'arb va Sharq adabiy maktablarida yuzaga kelayotgan ijodiy oqimlarning fundamental asoslari, ong oqimini qahramon ruhiyatidagi o'zgarishlar bilan bog'lash, uslubdagi individuallik, badiiy sintez masalasining keyingi davr qissalarida tezlashuvi, tarjimalarning ta'siri bilan bog'liq qarashlar adabiyotshunoslikda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo adabiyotshunosligida qissa janri roman janriga xos ayrim jihatlarini o'zida jamlaganligi, obrazlar tizimi, xarakter va ruhiyat, ijodiy mahorat, zamonaviy va tarixiy mavzulardagi qissalarning janriy imkoniyatlarini belgilash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Har bir asar alohida ijodiy hodisa bo'lib, unda umumiy xususiyatlar bilan birga faqat muallifga va aynan shu asarning o'ziga xos nozik farqlar ham mavjud bo'ladi. Bu holat badiiy tafakkurning o'ziga xosligi, san'atda individuallikning ustuvorligi va juz'iylik hamda tipiklik chegaralarining shartli ekanligi bilan izohlanadi. Aynan shu sabablarga ko'ra har bir alohida uslub misolida qissa janrini o'rganishga doimiy ehtiyoj seziladi. Istiqlol davri o'zbek qissalarining mavzu ko'lami va g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, xarakter yaratish mahorati, asosiy mavzuga chiqayotgan ijtimoiy qadriyatlar, hozirgi davr qissalarida psixologizmning kuchli yoritilishi, ijodiy oqimlar nuqtayi nazaridan baholanishlarni yoritish bugungi adabiyotshunosligimiz oldidagi dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda voqelikni badiiy idrok etishning yangicha yondashuvlari, adabiy uslub va badiiy tafakkur imkoniyatlari kengaydi. Jahon adabiyotidagi bosh tamoyillar an'anasi istiqloq yillarida alohida mazmun kasb etdi. Adabiyotshunoslik sohasi ushbu tamoyillarning o'ziga xos jihatlarini milliy adabiyotimizda ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etish boshladi. Yozuvchilar yaratgan va yaratayotgan asarlarda favqulodda badiiy topilmalar, ramziy timsollar yordamida voqelikning badiiy talqini tafakkur ufqlarini kengaytirmoqda, adabiyotning real hayotga, badiiy haqiqatning hayot haqiqatiga yaqinlashuvini kuchaytirmoqda. Bunda ijod ahliga ko'rsatilayotgan yuksak e'tiborning muhim ahamiyat kasb etayotganligini alohida ta'kidlash joiz. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Adabiyot va san'atga, madaniyatga e'tibor – bu, avvalo, xalqimizga e'tibor, kelajagimizga e'tibor ekanini buyuk shoirimiz Cho'lpon aytganidek, adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqqimiz yo'q"¹. Bu dasturiy xulosadan kelib chiqqan holda hozirgi adabiyotimizda yuz berayotgan yangilanishlar, o'ziga xos badiiy tafakkur

¹Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг «Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир» мавзусида Ўзбекистон ижодкор зиёлилари билан учрашувдаги маърузаси. «Халқ сўзи» газетаси, 2017 йил 4 август.

tamoyillari, ijodiy mahorat sirlarini tadqiq etish va bugungi adabiy jarayon yutuqlariga baho berish adabiyotshunoslik oldida turgan muhim vazifa hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son, 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son, 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son Farmonlari, 2017-yil 13-sentabrdagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi PQ-3271-sonli Qarorlari hamda shu sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlardagi vazifalar ijrosini ta‘minlashda ushbu dissertatsiya ishi ma‘lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Jahon so‘z san‘atida yangicha badiiy ijod tamoyillari, ramziy obrazlarning realistik in‘ikosi, bugungi adabiy jarayonning noyob xususiyatlari, o‘tmish tajribasi va an‘analari xususida qimmatli ishlar bajarilgan. R.Bart, J.P.Sartr, F.Nitshe, T.Eliot kabi yozuvchi va olimlarning tadqiqotlarida G‘arb va Sharq adabiy-badiiy tafakkurida yuz bergan ijodiy tamoyillar, modernizm, postmodernizm kabi adabiy uslublarning xususiyatlari, ularning ong oqimi turli ko‘rinishlari hozirgi milliy nasrimizda o‘ziga xos badiiy sintez qilingan. J.Joys, A.Kamyu, F.Kafka, P.Koelo, X.Kortasar va boshqa jahon adabiyoti namoyandalari asarlarining milliy adabiyotimiz adabiy olami maydoniga kirib kelishi, eng yaxshi asarlarining tarjima etilishi o‘zbek kitobxonlari saviyasining oshishida, ijodkorlarimizning tafakkur ufqlari kengayishida, ijodiy mahoratlari o‘ziga xos borishida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Adabiy jarayondagi o‘zgarishlar adabiyotshunoslik oldiga ham muhim vazifalarni qo‘ymoqda.

U.Normatov, I.G‘afurov, A.Rasulov, H.Umurov, Q.Yo‘ldoshev, Q.Qahramonov, D.To‘rayev, Y.Solijonov, S.Meliyev, H.Boltaboyev, G‘.Murodov, A.Qosimov, D.Quronov, I.Yoqubov, I.G‘aniyev, U.Jo‘raqulov, U.Hamdani, X.Do‘stmuhammad, A.Otaboy, A.Xolmurodov, G.Imomova, U.Rasulova, Sh.Botirova, R.Haydarova, R.Qo‘chqor, G.Sattorova, M.Boboxonov, D.Xoldorov, N.Cho‘liyeva, M.Jo‘rayeva, M.Qo‘chqorova, B.Shukurovalar tadqiqotlarida Isajon Sulton, Nazar Eshonqul, Luqmon Bo‘rixon, Abduqayum Yo‘ldoshev ijodiy tajribalarida bugungi kunda adabiy jarayonda yuz berayotgan evrilishlar, o‘ziga xos badiiy talqin, ramzlar, timsollar, ijodiy mahorat xususiyatlari muayyan darajada o‘zining in‘ikosini topmoqda. Zamonaviy qissalarda yangicha tamoyillarning bo‘y

ko'rsatayotgani to'g'risida U.Normatov fikrlari², A.Rasulovning ilmiy izlanishlarida yozuvchi badiiy asar – kitobxon munosabatlarining bugungi davr talablari nuqtayi nazaridan tahlil etilishi³, Z.Isomiddinov, I.G'afurovlarning adabiy ta'sir, ko'chirmachilik illati, J.Joys, A.Kamyu va boshqa modernist adiblar ijodining o'zbek yozuvchilari ijodiga ta'siri, an'anaviylik va asllik mohiyatiga doir qarashlari va hozirgi adabiy jarayondagi o'zgarishlarga bergan baholari⁴, Q.Qahramonov, Sh.Davronova, D.Salohiylarning yangi davr o'zbek adabiyoti yuzasidan olib borgan ilmiy izlanishlari, adabiy-nazariy qarashlari⁵ ahamiyatlidir. Filologiya fanlari doktori A.Xolmurodovning o'zbek qissalari poetikasi muammosiga bag'ishlangan tadqiqotida X.Sultonov, T.Murod, S.Abbos, X.Do'stmuhammad, X.Davron ijodiga mansub qissalarda obrazlar tizimi, ijodiy mahorat, zamonaviy va tarixiy mavzulardagi qissalarning o'ziga xos janr xususiyatlari yuzasidan qimmatli fikrlar bildirilgan⁶.

Filologiya fanlari doktori, professor U.Rasulovning dissertatsiyasida o'zbek adabiyoti-tida qissa janrining o'rganilishi, unga xos poetik izlanishlar, zamonga xos axloqiy omillarning aks etishi, qissalarni mavzu jihatdan guruhlariga bo'lish hamda XX asrda yaratilgan qissalarning falsafiy, estetik, psixologik omillarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash borasida chuqur tahliliy mulohazalar bayon etilgan. Mazkur dissertatsiyada A.Qodiriy, G'.G'ulom, A.Qahhor, O.Yoqubov, T.Malik, E.A'zam, X.Sultonov, M.M.Do'st, T.Murod, N.Eshonqul, U.Hamdani, I.Sulton, L.Bo'rixon, A.Yo'ldoshev ijodidagi qissalar misolida nazarda tutilgan xususiyatlarga doir tahlillar berilgan⁷. Darhaqiqat, adabiyotshunoslikda bu janrga tegishli ko'plab fundamental tadqiqotlar yuzaga kelgan⁸. Shunga qaramay,

² Normatov U. Nasrimiz ufqlari. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1974; Umidbahsh tamoyillari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000. – B.110.; Iyldoshev K. E'niq s'uz. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. – B.546.; Iyldoshev K. S'uz e'lkini. – T.: Faqur Gulom nomidaagi nashriyat-matbaa ijodiy uyi, 2018. – B.504; K'uchqorova M. Badiiy s'uz va ruhiyat manzaralari. – Toshkent: Muxarrir, 2011. – B.232.; T'uraev D. Rangin tasvirlar jilosi. – Toshkent: Akademnashr, 2014. – B.200.

³ Rasulov Abdug'afur. Badiiylik – bezavol yangilik. Ilmiy-adabiy maqolalar, talqinlar, etyudlar. – Toshkent: Sharq, 2007. – B.96-98,101.

⁴ Nizomov F.M. O'zbek adabiyotida qissa janriga oid ba'zi mulohazalar. "G'afur G'ulom ijodida milliy va umuminsoniy g'oyalar uyg'unligi" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. 2023-yil 26-may. – Toshkent, 2023. – B.207-214.

⁵ Qahramonov K. Adabiy jaraen va estetik talqin. – Toshkent, 2014. – B.35-36.; Daniyarova Sh. Istiklol davri uzbek romanlarida milliy ruh va qahramon. – Toshkent: Mumtoz s'uz, 2011. – B.73-86.; Salohiy D. Tasavvuf va badiiy ijod. U'quv k'ullanma. – Toshkent: "Navruz" nashriyati, 2018. – B.91-108.

⁶ Xolmurodov A. U'zbek kissachiligi: tarakkiyat muammolari (XX asr s'ung'i choraqi). Filol. fan. doktori. diss. – T., 2008. – B. 238.; Xolmurodov A. Muqaddas s'uz bo'kiyligi. – Toshkent: Fan, 2007. – B.96.

⁷ Rasulova U. XX asr uzbek kissachiligi (poetik izlanishlar va tarakkiyat tamoyillari). Filol. fan. doktori diss. – T., 2020. – B. 249.

⁸ Tenglashov M. Oso'bonnati konflikt v uzbekskix povestях 80-godov. Dis. kand. filol. nauk. – T., 1989; Tashpulatov G. Nравственная iskaniya v sovremennoy uzbekskoy povesti (M.M.Dust, Tagay Murad, Gafar Xatam). Dis. kand. filol. nauk. – Tashkent, 1993; Ulugov A. Osnovnye tendentsii razvitiya sovremennoy uzbekskoy povesti v interpretatsii literaturnoy kritike. Dis. kand. filol. nauk. – Toshkent, 1988; K'ubaev K. U'zbek kissalarida tarixiy haqiqat va badiiy ma'horat (60 – 80 yillar). Filol. fan. nomz. diss. – Toshkent, 2001; Jasmatova Z. Urbaniстик asarlarida muhtaraklik va u'ziga hoslik. Fil. fan. nom. diss. avtorref. – Toshkent, 1999. – B.28.; Rustomova M. Istiklol davri uzbek kissalarining tarakkiyat tendentsiyalari. Filol. fan. nomz. diss. – Toshkent, 2005; Karimova Yu. Pirimkul Kodirov kissalarida ma'naviy-axlokiy muammolarining badiiy talqini. Filol. fan. nomz. diss. – Toshkent, 2005; Bobo'xonov M. Hozirgi uzbek kissachiligi psixologizm. Filol. fan. nomz. diss. avtorref. – Toshkent, 2012; Sheralieva M. Hozirgi uzbek nasrida kinoya (ijtimoiy-psixologik omillari, poetik tizimdaagi u'rni). Filol. fan. fals. dok. diss. avtorref. – Toshkent, 2017; Xoldorov D. Hozirgi uzbek kissalarida badiiy uslub muammosi (Shoyim B'utaev

yuqoridagi tadqiqot ishlarida istiqloq davri o'zbek adabiyotida yaratilgan qissalarda ramziy timsollar, badiiy talqin va xarakter yaratishda yozuvchi ijodiy mahorati masalalari yetarlicha yoritilmagan. Mazkur tadqiqot adabiyotshunosligimizdagi ana shu bo'shliqni to'ldirishga bag'ishlanganligi bilan dolzarblik kasb etadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Mazkur tadqiqot Navoiy davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "O'zbek zamonaviy adabiyotini o'rganishning yangicha tamoyillari" mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Luqmon Bo'rixon va Abduqayum Yo'ldoshev qissalarida ramziylik va xarakter yaratish mahorati, psixologizm, individual uslub masalasini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

istiqloq davri o'zbek adabiyotida yaratilgan qissalarda yangicha yondashuv va tamoyillarning namoyon bo'lishi va g'oyaviy, badiiy-estetik xususiyatlarini jahon adabiyoti tajribalari asosida tahlil qilish, A.Kamyu, F.Kafka, Ch.Aytmatov, J.London ijodining ta'sirini ko'rsatib berish, ilmiy asoslash;

voqelikni badiiy aks ettirishda ramziy timsollarning o'rni va an'anaviy realistik tasvirdan farqli jihatlari, "Ong oqimi" ko'rinishlarining o'zbek adabiyotida voqelanishining Abduqayum Yo'ldoshev, Luqmon Bo'rixon qissalaridagi badiiy talqini va janr imkoniyatlarining kengayishidagi ahamiyatini ochib berish;

qissa janrida hayot haqiqatini badiiy haqiqatga aylantirishda ramziylik va xarakterlarning o'rni muammosini Luqmon Bo'rixon va Abduqayum Yo'ldoshev asarlari misolida ilmiy tadqiq etish;

milliy o'zlikni anglash, milliy va umumbashariy qadriyatlarning zamonaviy o'zbek qissalarida badiiy ifodalanishida yangicha yondashuvlar va tamoyillarning ta'sirini ko'rsatish;

va Nazar Eshonkul qissalari misolida). Filol. fan. fals. dok. dis. – Toshkent, 2017; Botirova Sh. Hozirgi zamon nasrida noan'anaviy qissalar badiiyati: uslub, janr va xronotop talqini. Filol. fan. dok. dis. – Jizzax, 2024.– B. 242.; Radjabova F. Istiqloq davri ўzbek kissachiligida uslub va poetik til. Filol. fan. fals. dok. dis. – Toshkent, 2018. – B.237.; Чулиева Н. Ижодкор маҳорати ва жанр поэтикаси (Назар Эшонкул киссалари мисолида). Filol. fan. fals. dok. dis. – Qarshi, 2020. – B.157.; Жўраева М. Замонавий ўzbek насрида янги инсон концепцияси (Абдуқайум Йўлдошев ва Зулфия Қуролбой кизи ҳикоялари асосида). Filol. fan. fals. dok. dis. автореф. – Фарғона, 2018; Содиков С. Ёшлар киссачилиги ҳақида ўйлар. – Toshkent: Шарқ юлдузи, 1983. №12. – B.160-165.; Улуғов А. Қалб таҳлили: кейинги киссаларга бир назар. – Toshkent: Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1988 й. 8 апр.; Shu muallif. Қиссачилигимиз кирралари. – Toshkent: Ўқитувчи, 1991; Расулова У. XX аср ўzbek киссалари тадрижи. – Toshkent: Фан, 2012; Shu muallif. Замонавий қиссалар поэтикаси. – Toshkent: Шарқ юлдузи, 2020. №2. – B.101-103.; Каримов Б. Рухият алифбоси. – Toshkent: Фафур Фулом номидаги НМИУ, 2018. – B.362.; Шералиева М. 2019 йил ўzbek киссалари. – Toshkent: Шарқ юлдузи, 2020. №2. – B.152-155.; Эрматова Й. Istiqloq davri ўzbek kissachiligida aёл рухиятининг бадий талқини. Filol. fan. fals. dok. dis. автореф. – Toshkent, 2020; Shukurova B. Yangi o'zbek nasrida etik va estetik ideal muammosi (L.Bo'rixon va Q.Norqobil nasri misolida). Filol. fan. fals. dok. dis. avtoref. – Toshkent, 2023. – B.58.; Sadullayeva M. Luqmon Bo'rixonning qissa va hikoyalarida badiiy mahorat masalasi. Filol. fan. fals. dok. dis. avtoref. – Urganch, 2023. – B.58.; Raxmonova X. Xurshid Do'stmuhammad hikoya va qissalari badiiyati (obraz va tasvir). Filol. fan. fals. dok. dis. avtoref. – Toshkent, 2023. – B.53.; Saidmurodova S. Nazar Eshonkul asarlarida badiiy psixologizm. Filol. fan. fals. dok. dis. avtoref. – Termiz, 2023. – B.56.; Teshaboyeva Z. Abduqayum Yo'ldoshev qissa va hikoyalarida badiiy-uslubiy izlanishlar. Filol. fan. fals. dok. dis. avtoref. – Toshkent, 2025. – 28 b.; Suleymanova S. Hozirgi o'zbek nasrida badiiy psixologizm: uslub va janr uyg'unligi (Luqmon Bo'rixon qissalari misolida). Filol. fan. fals. dok. dis. avtoref. – Jizzax, 2025. – B.24.

modernizm, postmodernizm, ekzistensializm singari adabiy oqimlarning kirib kelishi hamda ularning adabiyotimizda milliy qadriyatlar, an'analar badiiy talqiniga ta'siri, "ong osti oqimi"ga doir vositalarning o'zbek qissalarida o'ziga xos ko'rinishlarini tahlil qilish;

istiqlol davri qissalarida an'ana va vorisiylik, komparativistik mosliklarni aniqlash.

Tadqiqot obyekti sifatida Luqmon Bo'rixonning "Bir tomchi yosh", "Quyosh hali botmagan", "Sirli muallim", "Qidiruvdagi qiz", "Xizr ko'rgan yigit", "Olis qo'rg'on fuqarosi"; Abduqayum Yo'ldoshevning "Shoirning muhabbati", "Gudbay, Amerika", "Sunbulaning ilk shanbasi", "Otchopar yoxud o'n uchinchi uy", "Ishq sadolari va gadolari", "Shoirning muhabbati", "Osmon og'ushi", "Yurakdagi iz", "Jadid", "Sahrodagi muhabbat", "Begona shaharning namozshomlari" kabi qissalari tanlab olindi.

Tadqiqot predmetini Abduqayum Yo'ldoshev, Luqmon Bo'rixon qissalari va ularda voqelikni yangicha yondashuvlar asosida badiiy aks ettirishning ijodiy tajribalarini tahlil etish tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada psixologik, biografik, qiyosiy-tipologik, germeneytik, lingvistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o'zbek qissachiligida biografik elementlarning mavjudligi, tarixga murojaat, qadriyatlarni ulug'lash kabi an'anaviylik va psixologik portretlar, voqelikda kinoyaning ustunligi, ijtimoiy muhitni tasvirlashda ramziy detallarning yetakchiligi ochib berilib, *Xizr obrazi, tush, yo'l, daraxt* kabi folklor motivlari asosida olamning poetik manzarasini yaratish jihatlari aniqlangan;

Luqmon Bo'rixon va Abduqayum Yo'ldoshev qissalaridagi yolg'izlik, loqaydlik, o'z meni qobig'idan chiqmaslik hamda tabiat va inson, jamiyat va shaxs o'rtasidagi psixologik konfliktlar Baxtiyor, No'mon, Ubaydulla Xo'jayev, Erjigit, Erali, Nozima singari obrazlarda qo'llanilganligi asoslangan;

"Xizr ko'rgan yigit", "Olis qo'rg'on fuqarosi", "Yurakdagi iz" qissalarida *qarg'ish, ulug'lardan qo'l olish, muqaddas kitoblarga ishonish, fol ochish, qasam* kabi diniy-ma'rifiy motivlarning ahamiyati yoritilib, real va badiiy voqelikda ramziylikning *ko'ngil, may, soch, xonumon* singari mumtoz; *qo'rg'on, sibizg'a, to'lqin, soya, 13-uy, tuproq* kabi zamonaviy adabiyotdagi obrazlarning hayotga nisbatan falsafiy qarashlarini ifoda etganligi ochib berilgan;

"Jadid", "Osmon og'ushi", "Gudbay, Amerika", "Bir tomchi yosh", "Sirli muallim", "Quyosh hali botmagan" qissalarida yozuvchining xarakter yaratishdagi individualligi, ijtimoiy va psixologik konfliktlardan unumli foydalanishi, xarakter ruhiyatini yoritishda peyzaj tasvirini qo'llashi, syujetni takomillashtirish orqali xarakterning dinamik yuksalishiga erishganligi, voqelikning xarakter mantiqiga bo'ysunish mahorati isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

badiiy matn tushunchasini qissalar misolida ilmiy tavsiflash, badiiy mahoratning individual xususiyati, umumiylikdan xususiylikka o'sib borishining adabiy jarayonga ijobiy ta'sirini ko'rsatib berish;

qissalarda ramziy timsollardan foydalanishda milliy adabiy an'analardan oziqlanishning ahamiyati, L.Bo'rixon va A.Yo'ldoshev ijodida "ong osti oqimi" ko'rinishlarining milliy adabiyotimizda o'ziga xos xususiyatlari qiyosiy-tahliliy jihatdan asoslab berilgan;

ijodiy mahorat masalalari istiqbol davrida yaratilgan qissalarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, yangicha qarashlarning yangicha talqini muayyan bir asar misolida ilmiy tadqiq etilgan va xulosalar keltirilgan;

qissa janrida badiiy voqelikni ifodalashda ramziylik va xarakterlarning o'rni muammosi Luqmon Bo'rixon va Abduqayum Yo'ldoshev asarlari misolida ilmiy tadqiq etilgan. Bu borada muhim umumlashmalar ilgari surilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot yuzasidan chiqarilgan xulosalarning o'zbek va jahon olimlarining nazariy qarashlariga tayanilganligi, tadqiqotchi tomonidan jurnallarda e'lon qilingan ilmiy maqola, tezislarda o'z ifodasini topganligi, xulosa va takliflarning amaliyotga joriy etilishi va tadqiqot vazifalariga mos keluvchi adabiyotshunoslik metodologiyasi asosida tizimli qo'llanilgan usullardan foydalanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining **ilmiy** ahamiyati o'zbek qissalarining mustaqillik yillarida jahon so'z san'atidagi o'zgarishlar hamda yangicha estetik tafakkur ta'sirida yuksalishi, janr tadrijidagi o'sishlarni to'laqonli ilmiy tadqiq etishda tadqiqotda keltirilgan tahlillar va xulosalar asos bo'lib xizmat qila olishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining **amaliy** ahamiyati "O'zbek adabiyoti", "Jahon adabiyoti", "Adabiyot nazariyasi", "Qiyosiy adabiyotshunoslik", "Adabiyotshunoslikka kirish", "O'zbek qissalari poetikasi", "Ma'naviyatshunoslik" kabi fanlar bo'yicha maxsus kurs va seminar mashg'ulotlarini o'tishda hamda mazkur sohalar bo'yicha o'quv, uslubiy qo'llanmalar, darsliklar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Luqmon Bo'rixon, Abduqayum Yo'ldosh qissalarida ramziylik va xarakter yaratishni tadqiq etish jarayonida olingan ilmiy natija va xulosalar asosida:

o'zbek qissachiligida biografik elementlarning mavjudligi, tarixga murojaat, qadriyatlarni ulug'lash kabi an'anaviylik va psixologik portretlar, voqelikda kinoyaning ustunligi, ijtimoiy muhitni tasvirlashda ramziy detallarning yetakchiligi ochib berilib, Xizr obrazi, tush, yo'l, daraxt kabi folklor motivlari asosida olamning poetik manzarasini yaratish jihatlari aniqlangan ilmiy xulosalardan 2021–2023-yillarda bajarilgan PF-201912258 raqamli "O'zbek adabiyotining ko'p tilli (o'zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish" mavzusidagi fundamental loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 12-fevraldagi 04/1-532-son ma'lumotnomasi). Natijada loyiha ishi nazariy, tahliliy ma'lumotlar bilan boyitilgan;

Luqmon Bo'rixon va Abduqayum Yo'ldoshev qissalaridagi yolg'izlik, loqaydlik, o'z meni qobig'idan chiqmaslik hamda tabiat va inson, jamiyat va shaxs o'rtasidagi psixologik konfliktlar Baxtiyor, No'mon, Ubaydulla Xo'jayev, Erjigit, Erali, Nozima singari obrazlarda qo'llanilishi asoslanganligi borasidagi ma'lumotlardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining

24.08.2020-yildagi 503-son qarori bilan ta'sis etilgan "Ilhom" mukofotining 2021- va 2022-yilgi yakuniy bosqich natijalarida hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi tomonidan adiblar ijodini ommalashtirish, ularning hayoti va ijodi haqida ssenariylar tayyorlashda foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazining 2025-yilning 27-martdagi 1/08-4-son ma'lumotnomasi). Natijada yoshlar o'rtasida kitobxonlik madaniyatini oshirish, istiqlolning qadriga yetish, adabiyot, san'atni targ'ib etish, ularning ijodiy qobiliyatlarini rag'batlantirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

"Xizr ko'rgan yigit", "Olis qo'rg'on fuqarosi", "Yurakdagi iz" qissalarida qarg'ish, ulug'lardan qo'l olish, muqaddas kitoblarga ishonish, fol ochish, qasam kabi diniy-ma'rifiy motivlarning ahamiyati yoritilib, real va badiiy voqelikda ramziylikning ko'ngil, may, soch, xonumon singari mumtoz va qo'rg'on, sibizg'a, to'lqin, soya, 13-uy, tuproq kabi zamonaviy adabiyotdagi obrazlarning hayotga nisbatan falsafiy qarashlarini ifoda etganligi ochib berilganligiga oid xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi tomonidan 2022–2024-yillarda o'tkazilgan respublika "Zomin" seminari hamda uyushma qoshida tashkil etilgan "Umid" to'garagi faoliyatida, adabiy kechalarda va ijodkorlar bilan uchrashuvlarda unumli foydalanilgan (O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2025-yil 24-yanvardagi 01-03/24-son ma'lumotnomasi). Natijada badiiy matnni puxta tahlil qilish, novator adiblar izlanishlarining betakror talqinlari borasidagi mulohazalar bilan ijodiy seminar va to'garak mashg'ulotlarining boyishiga manba bo'lib xizmat qilgan;

"Jadid", "Osmon og'ushi", "Gudbay, Amerika", "Bir tomchi yosh", "Sirli muallim", "Quyosh hali botmagan" qissalarida yozuvchining xarakter yaratishdagi individualligi, ijtimoiy va psixologik konfliktlardan unumli foydalanishi, xarakter ruhiyatini yoritishda peyzaj tasvirini qo'llashi, syujetni takomillashtirish orqali xarakterning dinamik yuksalishiga erishganligi, voqelikning xarakter mantiqiga bo'ysunishi kabi mahorati isbotlanganligiga doir mulohazalardan Navoiy viloyati teleradiokompaniyasining "Assalom, yangi kun", "Qadriyat", "Adabiy muhit", "Alisher Navoiy va zamonamiz", "Tarixdan saboqlar", "Adabiyot burchagi", "Moziyga nazar" kabi ko'rsatuv va radioeshittirishlarda foydalanilgan (Navoiy viloyati teleradiokompaniyasining 2025-yil 1-martdagi 02/02.26-son ma'lumotnomasi). Natijada dasturlar L.Bo'rixon, A.Yo'ldoshev asarlarida vatanparvar yoshlar obrazi, ma'rifatli avlod xarakteri, ijtimoiy voqelik va shaxs ma'naviyati, til va uslub masalalari, kitobxon o'quvchilarni ko'paytirish, ilm-fan, kasbga sadoqat, zamonamiz yoshlari qiyofasiga doir nazariy fikr-mulohazalar bilan boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro, 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama etilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha 26 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola, shundan 8 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 148 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad va vazifalari belgilangan, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilib, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi ko'rsatilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Istiqlol davri o'zbek qissachiligi taraqqiyotining asosiy tamoyillari”** deb nomlangan. Dastlabki **“Istiqlol davri o'zbek qissalarining mavzu ko'lami va g'oyaviy-badiiy xususiyatlari”** deb nomlangan faslda qissachilik tarixi haqida mulohazalar mavjud. XX – XXI asrlarda yaratilgan qissalar mavzu jihatdan tasniflangan. Istiqlol davri qissalaridagi badiiylik, ramziylik, majoziylik, mifologik jihatlar belgilangan. Yozuvchilarning tarix, yaqin o'tmish, milliy qadriyatlar, shaxs fojiasi hamda zamonaviy mavzudagi qissalari bilan jahon adabiyotining ilg'or tamoyillariga dadil yaqin borganliklari, novatorlik xususiyatlari haqida muhim ma'lumotlar bayon etilgan. Adabiyotshunos Mavlon Boboxonov yozadi: “O'zbek yozuvchilarining istiqlof arafasida yozilgan qator qissalari inson kechinma va o'y-fikrlarining o'ziga xos “quyqa”si sifatida bo'y ko'rsatdi. Ularda hayotiy hodisalar qamrovi kengaydi, konflikt chuqurlashuvi, shaxs muammosiga, uning jamiyat bilan o'zaro munosabatiga qiziqish, ma'naviy-ruhiy tahlilga moyillik kuchaydi. Bu tendensiya qissa janrining barcha ko'rinishlarida namoyon bo'ldi, desak xato hisoblanmaydi”⁹ desa, professor Umida Rasulova: “Mustaqillik yillarida madaniy merosni o'rganish, milliy iftixor tuyg'usini tuyish hamda qadriyatlarni anglash, o'zbek qissalari mohiyatiga yanada chuqur kirib borish, badiiy asarlarning adabiyot rivojidagi munosib o'rnini asoslash, hozirgi davr adabiyotiga kuchli ta'sir o'tkazgan ijodkorlar faoliyatini kuzatish jadallashdi. Badiiy adabiyotda umuminsoniy g'oyalarning talqin etilishi barkamol avlod kelajagiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi”¹⁰, – deya qayd etadi. O'zbek va jahon adabiyotida yaratilgan qissalarning bugungi kungacha barhayotligi, badiiy-estetik quvvatini yo'qotmasdan kelishi bu fikrlarning tasdig'ini ifodalaydi.

Abduqayum Yo'ldoshev ijodini, uning adabiy uslubini alohida-alohida ajratib ko'rsatadigan jihatlarni quyidagicha belgilash mumkin: obraz taqdirini, ma'naviy olamini tasvirlashda majoziylik va ramziylik poetikasiga tayanish; g'oyaviylik hamda mavzular tizimida ishq-muhabbat talqinlari lirik ko'laming birmuncha kengligi; nasrda lirik pafos, kinoyaviy-tanbeh ruhining yetakchiligi va ularning uyg'un ruhda ko'rinishi; mustaqillik, ijtimoiy hayot imkoniyatlaridan mamnun kishilar yoki, aksincha, demokratiyani suiiste'mol qilish, boylik, mol-mulk

⁹ Boboxonov M.P. Hozirgi 'zbek qissachiligida psixologizm. Filol. fan. nom. diss. avtorref. – Toshkent, 2012. – B.12.

¹⁰ Rasulova U.Y. XX asr 'zbek qissachiligida (poetik izlaniشلar va taraqqiyot tamoyillari). Filol. fan. dok. diss. – Toshkent, 2020. – B.4.

to‘plashda hiylakorlik, olisdagi rivojlangan yurtlarni orzu qilish va yo‘l olish bilan bog‘liq fojialarning ko‘zga tashlanishidir.

Muallifning “Gudbay, Amerika” qissasi to‘kin hayot orzusida kutilmagan mashaqqatlar va fojialarga duchor bo‘lish mavzusi yetakchilik qilishi bilan e‘tiborni tortadi. Sarlavhasi va mavzusidan ma‘lum bo‘ladiki, qissa Amerikaga ish va mo‘may daromad izlab ketganlarning katta davlatda ko‘rgan ko‘rguliklari haqida. Asar g‘oyaviy pafosi, mavzusining yangiligi, obrazlar, syujet, psixologik talqin ko‘lami, majoziy-istiioraviy poetikasi jihatdan betakror. Yozuvchi xorijga otlangan “Tug‘yon” dastasining rahbari Tal‘atning kiyinishini tasvirlar ekan “jinsi shim”, “jinsi nimcha”, “krassovka”, “patila-patila jingalak soch” kabi predmet detallarni keltiradi. Bu majoziy-istiioraviy badiiylikda istiqlol davri, demokratik imkoniyatlar og‘ushidagi xo‘jayinsifat ko‘rinishdagi inson timsolini gavdalandirgan. Yozuvchi har bir xatti-harakat, so‘z – nutqiy detalga ma‘lum ijtimoiy falsafiy yoki axloqiy ma‘no yuklaydi. “Salonda qo‘shiq va raqs davom etar, yuzlab yo‘lovchilarni bag‘riga olgan ulkan samolyot zulmat bag‘rini yorib, vahshiy to‘lqinlari ko‘kka sanchilayotgan ulkan Atlantika okeani osmonida mittigina yulduz misoli uchib ketmoqda edi”¹¹. Guvullagan samolyot, zulmat, to‘lqinlar obrazi, bular fonidagi dilrabo o‘zbek musiqasi, qo‘shig‘i, raqslari ramziy ma‘noda ular borayotgan joy o‘z ona tuprog‘i, kuyi, raqsiga ham arzimasligini anglatadi.

“Sunbulaning ilk shanbasi”da asar sarlavhasini muallif uch ramziy ma‘noda qo‘llagan. Birinchi– shodlik, tavba-tazarru kuni, sir-asrorlar ochiqlandigan, bir so‘z bilan aytganda, diydor, visol kunidir; ikkinchi – ikki yoshning hayotida sodir bo‘lgan muhim voqealar payti; uchinchi – qahramonlarning har ikkalasi yoki bittasi sunbula burjida tug‘ilganligini anglash mumkin. Adabiyotshunos B.Karimov qissa haqida shunday deydi: “Yozuvchi voqeani muvaffaqiyatli tanlangan bir necha makonda bayon etadi: tahririyat, ikkinchisi – shifoxona (bunda qahramonni bir nechta nigoh orqali kuzatish mumkin), yana biri – uchrashuv joyi. Garchi yigitning ichki dunyosiga daxldor bo‘lmasa ham, hikoyachi bir nechta xonimlar bilan aynan shu uchrashuv joyida “to‘qnash” keladi va syujetning jiddiy ravishda qiziqarli tus olishini ta‘minlaydi”¹². Shu bilan birga, bu uch makon mohiyatan qahramonlarning istaklari, orzulari ushaladigan go‘shadir. Bu uch xronotop ramziy ma‘noda taskin – hijron – diydorni ham anglatadi.

Luqmon Bo‘rixon qissalarida, asosan, istiqlol davri mavzulari, g‘oyaviy-falsafiy muammolari o‘z aksini topgan. Ishsizlik, kasb-hunar egallash, tadbirkorlik qilish uchun sarson-sargardon bo‘layotgan yoshlar qismati, hayotda o‘z o‘rnini, tinchini ko‘rish, oila tebratish borasida mashaqqat girdobiga tushayotgan kishilarning hayotiy masalalarini qalamga oladi.

Adibning badiiy uslub va tasvirlash manerasida lirizm, yengil kinoyaviylik, obrazlar tashqi portreti va ruhiy olam manzaralarini tasvirlashda aniq va jozibali ohang sezilib, turli holatlar ko‘lami yorqin ko‘zga tashlanib turadi.

“Sirli muallim” qissasida Najot G‘aybullaning faoliyatini o‘rganish uchun olib borilgan tergov hujjatlarini keltirish orqali o‘sha mustabid tuzumdagi maktab,

¹¹ Йўлдошев А. Гудбай, Америка!//Осмон оғуши. Қиссалар ва ҳикоялар. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 2018. – Б.201.

¹² Каримов Б. Рухият алифбоси. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 2018. – Б.25.

o'qituvchi, o'quvchilarning va butun jamiyatning haqiqiy ahvoli aks ettiriladi. Maktab jamoasining tushuntirish xatlari orqali sho'ro davrida o'qituvchilar mehnatining qadrsizligi, o'quvchilarning ongi haminqadarligi, qishloq hayoti, maktab jamoasi haqidagi haqiqatlar ochila boradi. Qissa tipologik jihatidan ulug' adib Ch.Aytmatovning "Birinchi muallim" qissasiga monand. Muallim Dyushen xuddi Najot G'aybulla singari maktab jamoasini respublikaga tanitish uchun intiladi. Najot G'aybulla timsolida bugungi kun o'qituvchisi xarakteri ifodalangan. Zohiran yangi tizimga o'tgan-u, botinan aqli eski tizimda qotgan hamkasblar bilan ishlashga imkon topgan, borini maktabga bag'ishlagan muallimlar atrofida uchun ko'zgu ekanligi asar matnida anglashiladi.

Munaqqid Ilhom G'aniyev "Oq kema"da ko'tarilgan muammo adabiy: O'rozqul-u Mo'min chollar fojiasi barcha zamon-u makonlarning ulug' bir dardidir. Bu dard butun yer kurrasining unda yashab o'tgan va yashayotgan buyuk shaxslar, yuksak qalb egalarining yelkalarini bosib turgan og'ir yuk"¹³, deydi. Najot G'aybulla siymosi majozan shu qissadagi Mo'min cholga o'xshab ketishi (doim o'zi sevgan ishlarni bajarishi, urf-odatlarining unutilishidan ranjish, mudom boshqalar baxti uchun qayg'urish, mehnatsevarlik)da hamohanglik sezilsa, ish, oilaviy hayotda muvafaqqiyatsizlik esa "Sarvqomat dilbarim"da Ilyosga ruhan yaqinlikni bildiradi.

Birinchi bobning *"Istiqlol davri o'zbek qissachiligida an'ana va yangilanishlar"* nomli ikkinchi faslida esa qissalarda an'anaviylik, vorisiylik, tipologik o'xshashliklar, badiiy mahorat, obrazlar poetikasi masalalariga oid mulohazalar bildirilgan.

L.Bo'rixonning "Bir tomchi yosh" qissasida mustaqillikning dastlabki pallasida o'z orzusidagi ishga, kasb-korga erishish, bozor iqtisodi maydonida iste'dodini yuzaga chiqarish, tadbirkorlik qilish maqsadida zor qaqshagan yigitning achchiq taqdiri bilan bog'liq mavzular badiiy talqin etilgan. Qissa poetikasi bag'riga singib ketgan ovoragarchilik, "otangga bor – onangga bor" qabilidagi yosh kuchlarga e'tiborsizlik, bechorahol, chorasizlik hodisotlari T. Drayzerning "Amerika fojiasi", "Baxtiqaro Kerri" romanlaridagi burjuaziya muhitida ish, martaba topmay sarson bo'lgan bechora timsollar obraziga ruhan monand. Bunday jihat A. Kamyuning "Begona" romani qahramonlari hayoti bilan ham tashqi tomondan tipologik o'xshashlik kasb etadi.

Yozuvchi shu tariqa Baxtiyorning Tom Soyer (M.Tven), Pepe, Kipo (J.Steynbek), Kish (J.London), Chikam (M.Gorkiy), Rodion (F.Dostoyevskiy), Kamol, Sultonmurod, Boytemir (Ch.Aytmatov) singari jahon adabiyotida yaratilgan adabiy timsollar, E.A'zam, M.M.Do'st, N.Eshonqul kabi milliy nasr namoyandalari qissalaridagi bechorahol odamlar xarakteridagi obrazlar bilan mushtarak ko'rinsada, muallif Baxtiyor xarakterining o'ziga xos qiyofasini badiiy puxta shakllantira olgan. Shuningdek, bu obraz o'zbek nasri tizimidagi yangilanish – timsol tiynatini, ruhiy-psixologik olamini chinakam "badiiy tadqiqot" dramasiining tasvirlash darajasida talqin etilgan.

Nazar Eshonqul adabiy qahramonlarining shakl-shamoyilini tasvirlashda ruhiy olam qarama-qarshi qutblarini keng masshtabda talqin etishga alohida urg'u beradi.

¹³ Ганиев И., Ибрагимов Р. Чингиз Айтматов ва XXI аср. – Тошкент: Akademyashr, 2010. – Б.19.

“Tobut” hikoyasida totalitar tuzum zug‘umlarini, mustabid siyosat mohiyatini o‘zida mujassam etgan odamkush shahar tarhini chizgan me‘orning ko‘rguliklari misolida bersa, Abduqayum Yo‘ldoshning “Otchopar yoxud o‘n uchinchi uy” qissasida Nozima ismli ayolning achchiq turmushi majoziy-istioraviy uslubda psixologik joziba bilan talqin etilgan. Mazkur qissa allazamonda otchopar bo‘lgan maydonda qad rostlagan to‘qqiz qavatli “13” raqamdagi “dom” voqeligi asosida qurilgan. Ushbu inshoot mahalliy aholiga nisbatan nopisandlik, milliy-ma‘naviy qadriyatlarini toptash kabi yakkahokimlik siyosatining majoziy talqinidir. Muallif asarda “qarg‘ish”, “qasam” predmet detallari orqali odamkush mafkuraning avra-astarini ag‘darib tashlashga erishgan. So‘kish va qarg‘ishlar qahramon xarakteri, psixologiyasida muhim o‘rin tutadi. Ularning milliy namunalari “Otchopar...” va “Yurakdagi iz” qissalarida bo‘rtib ifodalanadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Qissada ramziy obraz va badiiy talqin**” deb nomlanadi. “*Yozuvchi ijodining asosiy tamoyillari va qissadagi ramziylikning o‘zaro uyg‘unligi*” nomli birinchi faslida ramz, simvolizmning badiiy adabiyotdagi ahamiyati haqida batafsil fikr yuritilgan. L.Bo‘rixon, A.Yo‘ldosh izlanishlariga, yaratma obrazlariga xos adabiy, badiiy-romantik, ramziy-istioraviy tamoyillarni aniqlash, qo‘llash va badiiy xarakter yaratish mahorati tahlil etilgan.

Abduqayum Yo‘ldoshning “Yurakdagi iz” qissasida inson qalbini tushunishga urinish, muhabbat, hijron, vafo, xiyonat, razolat, insoniylik kabi masalalar chuqur bayon etilgan. Voqealar bosh qahramon Erjigitning o‘z joniga qasd qilishidan boshlanadi va retrospektiv uslubda barcha hodisalar birma-bir eslanadi. “Epik asarlarda obraz xarakterini tasvirlashning imkoniyatlari ancha keng, – deb yozadi taniqli adabiyot nazariyotchisi G.Pospelov, – asar fabulasida qiziqarlilikni ta‘minlash maqsadida muallif personajlarining keyingi, hali kelajakda bo‘ladigan taqdirlerini sir saqlagan holda, ularning turli orzu-umidlar, porloq taqdir yoxud, aksincha, ko‘rguliklar bilan bog‘liq hikoyalarini, xayol-niyatlarini oldindan tasvirlash nominatsiyasini ham qo‘llaydi. Bunday holatlar o‘sha asar arxitektonikasida syujet qiziqarlilikni, insoniy murakkablik fabulasini hosil qilish uchun xizmat qiladi”¹⁴. Bu jihat qissaga mos keladi. Akbarqulning qabih rejasidan bexabar Erjigit Zuhra (benasib muhabbati)ning oilasiga oid haqiqatlar (farzandsizlik, Tohirning mijozi zaifligi)ni aytadi. Natijada Tohir infarkt tufayli vafot etadi. Ayol ham o‘zini suvga tashlab, joniga qasd qiladi, ularning boqib olgan farzandlari yetim qoladi. Shundan keyin o‘zini Qorabotir hisoblagan yigit o‘z joniga qasd qilishi shafqatsiz realizmning tipik shaklidir.

Asarning nega aynan “Yurakdagi iz” deb nomlanishini to‘rt ma‘noda izohlash mumkin. Avvalambor, Erjigitning Zuhraga muhabbati va vijdoni ramzi, ikkinchidan, bobosi Yo‘ldosh baxshining duosi hamda undan olgan ramziy “qo‘l olish”ning ta‘siri, uchinchidan Tohir va Zuhraning farzandsizlik belgisi, nihoyat, atrofidagi insonlarning adolatsizligidan qalbida qolgan jarohatlar izi bo‘lib kelgan.

Bosh qahramon – Erjigitning xarakteridagi irodasizlik, qat‘iyatsizlik hamda kurashuvchanlikning yo‘qligi “Ufq” trilogiyasi qahramonlaridan biri Tursunboyga hamda Asqad Muxtorning “Chinor” romanida Akbaraliga o‘xshasa, yakundagi

¹⁴ Пospelov Г. Теория литературы. – Москва: Высшая школа, 1978. – С.103.

ruhiy holati F.Kafkaning “Evrilish” asaridagi Grigor Zamzaga uyg‘un xususiyatlarni uchratamiz.

Luqmon Bo‘rixonning “Qidiruvdagi qiz” qissasi qiziqarli tafsilot, ifodalarga boy. Nomlanishidayoq sirlilik mavjud. Malik va Nusratning do‘stligi asosiga qurilgan voqelik davomida sirli, xufya ishlarni “fosh qilish” motivi yuzaga chiqadi. Nusratning to‘siqlarga qaramay yoshlikdagi do‘sti Malikni o‘limdan saqlab qolishida do‘stlik va adolatning yakuniy tantanasi ro‘y beradi.

“Yurakdagi iz”da Erjigitning ekstrasenslik faoliyati bilan shug‘ullanishi, “Qidiruvdagi qiz”da esa Nusratning do‘sti qilgan yashirin ishlarni oydinlashtirishi dunyo adabiyotida “Sherlok Xolms sarguzashtlari” (A.K.Doyle)dagi mashhur detektiv hodisalarni eslatadi. Uch asarda ham yaxshilikning qadri, yomon ishlar jazosiz qolmasligi, haqiqat tantanasi qizil ip singari asar mazmunini bog‘lab turadi.

Bobning *“Qissada g‘oyaviy-badiiy niyat va ramziylik”* deb nomlangan ikkinchi faslida ikki adibning qissalarida obraz yaratishning o‘ziga xosligi, g‘oyaviy-badiiy niyatning ramziy ifodasi, ramziylik, uslubga doir fikrlar qissalar tahlili orqali bayon etilgan.

Luqmon Bo‘rixonning “Bir tomchi yosh” qissasi uslubi qahhorona kinoyaviy tarzda, xalqona poetik jozibador ohangda yaratilgan. Uning g‘oyaviy-ijtimoiy dolzarbligi o‘tish davrida, bozor iqtisodi shakllanayotgan jarayonda hayotda o‘z o‘rni, o‘z kasb-korini topolmayotgan navqiron yigit Baxtiyorning xarakter qirralari qalamga olingan. Adabiyotshunos T.Rasulovning yozishicha, “Uslubni u yoki bu ijod tilidan yoki priyom va badiiy tasvir usullaridan emas, balki yozuvchilarning shu ijod tili hamda usullardan foydalanishdagi o‘ziga xos, original xususiyatlari, individual “pocherk”idan qidirish maqsadga muvofiqdir”¹⁵.

L.Bo‘rixon ijod dunyosiga, adabiy uslubiga tegishli tasvirda gogolona, qahhorona kinoya, qochirim, borliq, inson va hayotga tanqidiy-isyoni munosabat xosligi bilan e‘tiborni tortadi. Yozuvchining individual “pocherk”i – o‘ziga xos g‘oyaviy-badiiy kredosi, tasvirlash uslubi xalqona jozibaga, lirik ko‘lam va psixologik tadqiqotga egaligi bilan muhimdir. Professor Qozoqboy Yo‘ldoshevning qayd qilishicha, Luqmon Bo‘rixon o‘z asarlarida “atay ijtimoiy muammo ko‘tarmaydi, balki odam taqdirini aks ettiradi. Odam esa hamisha ijtimoiy muammolar og‘ushidadir”¹⁶.

Yozuvchi **choyxona muhiti** tasvirida ramziylik yordamida qahramon ruhiy olam qirralarini, murakkab taqdir manzaralarini aks ettiradi. **“Tubida qoramtir suv qalqib turgan hovuz”** – yosh yigitning og‘ir, aziyatli taqdirining ifodasi. **“Isqirt bir ko‘lmak yuzida balqib turgan yulduzlar”** istioraviy tarzda hayotdagi oq va qoraning, ezgulik va yovuzlikning, quvonch va qayg‘uning poetik-ramziy talqini bo‘lsa, **“Tun! Qop-qora, motamsaro daraxtzor!”** kabi oddiy tabiat manzarasining ramziy mohiyati – yigitning qalbi, insonlar ruhiyatining qoraligiga ishoradir. **“Baxtiyorning yuragida tanish, juda tanish to‘lqin ko‘tarildi”**. Bu ramz kelajakka ishonch, o‘zining navqiron damlari tuyg‘usi sifatida e‘tiborni tortadi.

¹⁵ Rasulov T. Adabiy ijodda uslub // Adabiyet nazariyasi. Ikki tomlik. 2-tom. Adabiy-tarixiy jaraen. – Toshkent: Fan, 1996. – B.155.

¹⁶ Iyldosh K. Badiiy kamolot iyli // Burihon L. Kuesh xali botmagan. – Toshkent: Uzbekiston, 2015. – B.5.

Qissada **aroq, ichkilikka berilish** ham alamzadalik simvoli. Qolaversa, nomutanosib muhitdan ustun kelish, aziyatni yengish tayanchi mazmunini tashiydi.

Luqmon Bo‘rixonning nasriy mahoratini takomillashtirish yo‘lida jahon adabiyoti namunalaridan ilhomlanganligi ma‘lum. Detektiv-sarguzasht adabiyoti asoschisi deb tan olingan Edgar Allan Poning “Sukunat”, “Vaqt o‘rog‘i” novellalaridagi obraz va absurd muhit, qahramonning sirli ma‘vo bag‘rida tasvirlanishi “Bir tomchi yosh” qissasi qahramoni Baxtiyorning tushkun taqdiri bilan mushtaraklik e‘tiborni tortadi.

Inson taqdiri chigalliklarini tasvirlashda Edgar Po romantik-lirik yo‘ldan borgan bo‘lsa, Luqmon Bo‘rixonda talqin realistik-ramziy uslub yetakchilik qiladi. E.Poda xarobot, sukunat, qonli nur sochuvchi oy, zaharlangan suv, bo‘ron, yomg‘ir kabi obrazlar majoziy semada nojoiz davr, zulmkor siyosat aksiga xizmat qilsa, Baxtiyor real hayotdagi qarama-qarshiliklar bilan yuzma-yuz keladi. To‘sqinlik qiladiganlar, yovuzlik yoki ma‘naviyatsizlik timsollari – qorong‘ilik, balchiq suv, qop-qora bo‘liq ramzida talqin qilingan.

Abduqayum Yo‘ldoshning “Jadid” avtobiografik qissasi jadidlarning ulug‘vor g‘oyalarni dadillik bilan ko‘tarib chiqqan, jonini garovga qo‘yib himoya qilgan Ubaydulla Xo‘jayevning faoliyati haqida. Asardagi aksariyat voqealar tarixiy hodisalarning aynan o‘zi, ba‘zilari yozuvchi fantaziyasi asosida badiiy mukammal holga keltirilgan. Syujetlar rivoji davomida bu obraz xarakter darajasiga ko‘tarilgan. Quyidagicha tasnif etish mumkin: 1) mohir huquqshunos; 2) iste‘dodli yozuvchi, tarjimon; 3) chin rahbar va millatparvar inson xakteri.

Yozuvchi asar boshidan Ubaydulla va Mixail o‘rtasidagi bahs-munozarani yoritgan ekan, o‘zbek va rus millati vakillari qarashlaridagi konfliktlarni ko‘rsatadi. Obrazning xarakter dinamikasida ulug‘ yozuvchi Lev Tolstoy bilan yozishmalari ahamiyatli. Dastlab, uning “Yovuzlikka qarshi kurashmaslik” g‘oyasiga amal qiladi, biroq hayotdagi turli noxushliklarni ko‘rib: “Tolstoyning yovuzlikka qarshi yovuzlik bilan javob bermaslik nazariyasi vaqtida jazolanmagan yovuzlikning rag‘batlanishiga, binobarin, avj olishiga xizmat qiladi...” yoki “...gap insonlar hayoti haqida ketganda yovuzlikka qarshi kurashish kerak”¹⁷ degan fikrlari uning tadrijini ifodalaydi.

Asarda Ko‘lanka, Siyob singari nomlar ayg‘oqchining maxfiy ismi. Bu kabi ayg‘oqchilar millatning asl farzandlarining nobud bo‘lishiga zamin hozirlaganlar. “Ko‘lanka” deb nomlanishi ham ramziylik kasb etadi. “Ko‘lanka” doimo nurning izidan ergashadigan zulmat timsolidir. L.Tolstoyning “Tirilish” romanida ham adolatsiz sud muammosi va uning fojiali oqibatlari insonlar taqdiriga ko‘rsatgan ma‘naviy zarari realistik uslubda tasvirlangan. Sud, sudya, prokuror, tergovchi, advokatlarning qonunga xilof xatti-harakati badiiy-falsafiy tasvirlangan. Qaysidir ma‘noda “Jadid” qissasi mashhur “Tirilish” romani an‘anasi va tasviri ruhida yozilganligini tasdiqlaydi.

Bosh qahramon qissa oxirida otishga hukm qilinadi. Xo‘jayev ulkan daraxt tagiga borib turadi. “Ulkan daraxt” – bu yerda ramz. Ulug‘ millat, xalqning ramzi.

¹⁷ Йўлдошев А. Жадид// Шараф йўли. Биографик роман, кисса. – Тошкент: Sahnof, 2023. – Б.249.

Kelajagi yorqin, hur va ozod, xuddi ulkan daraxt yanglig‘ gurkirab yashnashiga umidvorlik hissi mujassam.

Uchinchi bobning “*Qissada ma’naviy qadriyatlar va davr ijtimoiy dardi*” nomli faslida istiqloq davri qissalaridagi diniy tasvir, davrning ijtimoiy dardlari, ma’naviy qadriyatlarga munosabat, diniy obrazlar xususida umumlashmalar keltirilgan. L.Bo‘rixonning “Xizr ko‘rgan yigit” qissasi tuguni, umumiy falsafiy mohiyatiga doir qarashlar keltirilgan. “Kechagina eshagiga qiyshiq mingan qishloqi edim, bugun esa ajabtovur mashina o‘rindig‘ida yastanib o‘tiribman-a?! Nahotki, Xizr ko‘rganim chin?!”¹⁸ degan bir qadar g‘alati, balki, ilohiy-irfoniy so‘zlar bilan boshlanadi. Darhaqiqat, Xizr abadiy o‘lmaydigan payg‘ambarning elaro yurishi haqidagi ilohiy aqidaning xalq orasida yurishi bu e’tirofga ishonish ruhini hosil qiladi. Yozuvchi sarguzasht-detektiv uslubdagi asarlarga xos ravishda, yuqoridagi kichik “ma’lumoti” bilan qissaning qiziqarlilik mohiyatini hosil qilgan.

Qissa arxitektonikasi, voqealar tizimida, asarning yetakchi qahramoni tilidan hikoya qilingan syujet ko‘lamida M.Tven, J.Vern, G.G‘ulom, X.To‘xtaboyev asarlari uslubida namoyon bo‘ladigan yumorga moyillik, sho‘x-shodon va g‘ayrat-shijoatli yigit lafziga monand hazilomuzlik poetikasi ustuvor. Qissaning syujet tizimida ramziylik talqini bilan mo‘jizaviy realizm uslubiga xos ohang sinkretik tarzda uyg‘unlashib ketgan. Yozuvchi Qorjovning keksa insonga ko‘rsatgan g‘amxo‘rligini oshkor qilib yurmaslik haqidagi so‘zlari va qat’iy ahdini ta’kidlash bilan qissaga sharqona g‘oyaning realistlik, hayotiy talqinini bergan.

Qissaga “Qonun taqiqlay olmagan narsalarni goho nomus taqiqlay oladi” (Seneka) fikri epigraf sifatida tanlangan. Erali bu jumlaning hayotiy hikmatga aylantirgan. Iqtibosda nomus masalasi mantiqan, ijodkor tafakkurida iymon, or-nomus, va’daga vafo, mas’uliyat kabi ramzlarni ifodalaydi. Xizrni ko‘rgan yigit timsolida Xizr dunyo qutqusida naql etilishi rad etilib, o‘zlikni anglash, tirilish timsolida ramziylashgani umumbashariy motivlarning insoniylik tamoyilini gavdalantiradi. Shu asarda o‘sha davr oddiy xalq va kibarlar o‘rtasidagi farqlar, turmush, mustaqil hayot mashaqqatlari sodda cho‘pon oilasi misolida kartinadek chizilgan.

L.Bo‘rixonning “Olis qo‘rg‘on fuqarosi” qissasida ham bu motiv yetakchilik qiladi. Bosh qahramon xayoliga biror yomon fikr kelsa, darrov tahorat qiladi. Diniy aqidaga ko‘ra bu insonni poklaydi, uni yomon ishlardan qaytaradi. Bir o‘rinda ustoz fizikadan formula so‘raganda javob o‘rniga muqaddas kalom “Bismillohir rahmonir rohim” deya kulgiga qolishi, qabristonda mustaqil tilovatlar qilishi yoki diniy maktabdagi ikki yillik ta’lim jarayoni ham fikrimizni tasdiqlaydi. U yerdagi diniy suhbatlar, ayniqsa, hadis, “Haftiyak”, “Yusuf va Zulayho”, S.Boqirg‘oniyning “Yarim olma” kitobidan olingan hikoyatlar va she’riy parcha ham diniy mazmunga, ham ramziylikka xizmat qilgan. Bosh qahramon No‘mon timsolida ijtimoiy voqeliklar, davr muammolariga qaramay ma’rifatli avlod xarakteri shakllangan.

A.Yo‘ldoshning “Yurakdagi iz” qissasi esa to‘lig‘icha diniy-ma’rifat, milliy qadriyat va urf-odatlar talqiniga bag‘ishlanganligi bilan ahamiyatli. Qissada duo, qo‘l olish, tabiblik, tushlar ta’biri, hadislar, fol ochish kabi ishlar orqali bu

¹⁸ Бўрихон Л. Хизр кўрган йигит. Қиссалар ва ҳикоялар. – Тошкент: Шарқ, 2007. – Б.4.

xususiyatlar yuzaga chiqqan. Yo‘ldosh baxshining umri poyonida kunlab kimnidir intiq kutishi, Erjigit kelgach: “Hamon yodimda. Tup, tup, – deb menga qarab ikki marta tupurdi. To‘g‘risi, bu ramziy tupurish edi. Og‘zi quruqshab turgan ekanmi, bobomning og‘zidan bir tomchi ham tupuk chiqmadi. Otam bezovtalanib, jon holatda oldinga o‘tib, meni gavdasi bilan to‘sarkan: – Shuni bekor qildingizov, ota, – dedi. Bunga javoban bobom tuyqus yengil tortgan odamday mayin kulimsiradi:

– Shu bola mening qo‘limni olsin”¹⁹ voqeligi xalq orasida mashhur, avliyosifat kishilarga yoki ishi yurishgan odamlarga “og‘ziga bir tupuring” deyishiga ishora.

Mazkur faslda Xizr obrazi, tush, duo, qasam, qarg‘ish, tavba-tazarru kabi diniy motivlar, hadis, diniy kitoblar hamda va‘daga vafo, yolg‘on so‘zlamaslik kabi odob-axloq masalalari vositasida fasl mazmuni izohlangan.

Ishning III bobi “**Badiiy tafakkur, nasr va janr imkoniyatlari**” deb nomlangan. Bobning birinchi fasli “*Istiqlol davri o‘zbek qissalarida xarakter yaratish, davr va qahramon munosabatlari*” tarzida bo‘lib, bu qismda xarakter, obraz, tip kabi istilohlar nazariy izohlangan, xarakter yaratish yo‘llari, konflikt, kontrastning o‘rni ikki yozuvchi qissalari asosida tahlil qilingan.

Abduqayum Yo‘ldosh, Luqmon Bo‘rixon qissalarida Otabek, Yo‘lchi, Navoiy, Bobur, Ulug‘bek, Anvar, Kumush, Ra‘no, Otaqo‘zi, Ochil bobo, G‘aybarov singari yirik badiiy xarakter – obrazlar kam uchrasa-da, xarakter darajasidagi timsollar namunasi ham yaratilgan.

Ularni besh turga ajratish mumkin: 1. Vatanparvar shaxs xarakteri. 2. O‘qituvchi xarakteri. 3. Bola xarakteri. 4. Chin oshiqlar xarakteri. 5. Zamonamiz qahramonlari xarakteri.

A.Yo‘ldoshning “Gudbay, Amerika!” qissasidagi Nodir, Tal‘at, M.Qilichevich, Lobar obrazlari misolida xorijga pul-boylik izlab ravona bo‘lgan kishilar obrazining turkum shaklda yaratilishi ma‘lum ma‘noda tiynatdir.

“Jadid” qissasining bosh qahramoni Ubaydulla Xo‘jayevning chin vatanparvar, dorulilm sohibi, e‘tiqod-u diniy-ma‘rifiy tarbiyasi, turli sud ishlarida o‘z yurtdoshlarini dadil oqlashi, haqiqat va adolat masalasini jonini tikib himoya qilishi xarakterlidir. Yoki “Yurakdagi iz”da Erjigitning o‘zi va atrofdagilar bilan muloqotlarida mazkur jihat yuzaga chiqadi.

“Ishq sadolari va gadolari” qissasidagi Nurali obrazida va‘da, qasam, ahdga sadoqat, Nafisa obrazida ishonch, ota-onaga hurmat-izzat, ularni qo‘llab-quvvatlash kabi jihatlar bugungi yoshlar qiyofasini, “Sunbulaning ilk shanbasi”da Suluv va yigit, “Shoirning muhabbati” qissasida Nozimning Oltinoyga bo‘lgan pokiza muhabbati va konfliktlarga to‘la hayoti chin oshiqlar xarakterini ifodalaydi.

Luqmon Bo‘rixonning “Bir tomchi yosh” qissasidagi Baxtiyor mustaqillikka o‘tish davridagi ishsizlik, omadsizlik, layoqatsizliklar girdobida qolib, o‘zidagi iste‘dodi uchun jur‘at bilan olg‘a qadam tashlay olmagan zamon qurboni sifatida xarakterlanadi, “Xizr ko‘rgan yigit” qissasidagi Qorjov esa o‘z kuchi, ilmi, salohiyatiga ishonsa-da, odamlar to‘qib chiqargan e‘tiqodga hamfikir, duo olganning omadi doim yurishib, ishi o‘ngidan kelishiga ishonadi. Shuningdek, ishini oxirigacha yetkazadigan, kirishimli, samimiy xarakter xususiyatiga egadir.

¹⁹ Йўлдошев А. Юракдаги из//Алвидо, гўзаллик. Қисса ва ҳикоялар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – Б.14-15.

“Quyosh hali botmagan” qissasida Absal polvon, Norsoat, Tanzila obrazlarining xarakter darajasida namoyon bo‘lishini bevosita ulardagi ishonch, samimiylik, kamtarinlik, milliy ruhning bo‘liq ko‘rinishlarida, ayniqsa, Absal polvonning xalq urf-odatlariga bo‘lgan hurmatida, kurashni e‘zozlashi, halollik borasida o‘rnaklik uni xarakter darajasiga olib chiqqan. Bu jihatdan, Bo‘ri polvon (T.Murod), bolalar (Norsoat, Tanzila)ning yangi muhitga o‘rganish jarayonidagi ziyraklik gruzin adibi N.Dumbadzening “Hellados” hikoyasi qahramoni Yanguli xarakteriga o‘xshab ketadi. Ularda vatanparvarlik, erksevarlik xarakterlarini ham kuzatish mumkin. Qissa voqealari nemis adibi E.Remarkning “Uch og‘ayni” romanidagi Robert, Kester, Gotfrid kabi obrazlarning munosabatlariga komparativistik yaqin. Ya’ni ikki asarda ham to‘siqlarga qaramay haqiqiy do‘stlik, chin muhabbat g‘alaba qiladi.

Yozuvchining “Sirli muallim” qissasida Najot G‘aybulla, direktor Qalqonov, muallim B.Boymurodov, Ulash agronom obrazlarining xarakter darajasida namoyon bo‘lishini ham kuzatish mumkin. Ular orqali zamonamiz o‘qituvchisi xakteri yuzaga chiqadi. Shu bilan birga, “Olis qo‘rg‘on fuqarosi”da salbiy ma’noda Ilyasov domla obrazi ham shu umumlashmalarga mos keladi.

N. Eshonqul, A.Yo‘ldosh va L.Bo‘rixon o‘z asarlarini lirik talqin, kinoyaviy-ramziylik maqomidagi tasvirlar badiiy istioraviy va ramziy obrazlar bilan boyitgan. “Momoqo‘shiq”, “Shoirning muhabbati”, “Bir tomchi yosh” qissalarida voqelik, tasvir mahorati, ruhiyat va xarakter ifodasi, ramziylik jihatidan mushtarakligini anglaymiz. Akademik A.S.Bushmin uqtiradiki, “Turli milliy adabiyot vakillari qanchalik iste’dodli bo‘lishidan qat’i nazar, baribir, boshqa so‘z san’atkorlaridan ham u yoki bu darajada ta’sirlanishi tabiiy. Adabiy aloqadorlik tizimida u yuksak iste’dod sohibi bo‘lsin, hatto o‘rtacha iqtidordagi bo‘lsin, baribir, o‘zaro bir-biridan o‘rganishi tabiiy adabiy qonuniyat sanaladi”²⁰. Mazkur qissalar g‘oyaviy pafosi, lirik-potensial ko‘lamining salmog‘i Nozim-Oltinoy, Muazzam, Baxtiyor-Rajaboy timsollarining yetuk milliy xarakter sifatida yaratilgani va ramziy tasvirga urg‘u berilgani bilan bevosita bog‘liq.

Bobning ikkinchi fasli “**Real va badiiy voqelik tasvirida ramziylik**” bo‘lib, unda simbolizm, majoziylik, hayot haqiqatining badiiyatga aylanishi, istiqlol qissalarining badiiy yangiliklariga oid mulohazalar berilgan.

Abduqayum Yo‘ldoshning “Otchopar yoxud o‘n uchinchi uy” qissasining leksikasi o‘ziga xos. Unda ruscha internatsional so‘zlar uchraydi. Qolaversa, “13-uy”ning umumiy qurilishi, hatto xalq donoligida ishlatiladigan va “xosiyatsiz” ma’nosini tashiydigan majoziylik xarakteriga ega. Qissa Gulxaniyning “Zarbulmasal” kabi mukammal majoziy-ramziy asaridagi qiz mahriga ming chordevor xaroba talab qilinishiga mazmunan mushtarak. Asar tasviri Nazar Eshonqulning “Tobut” hikoyasidagi voqelikni eslatadi. Ya’ni ikki asarda ham sho‘ro tuzumining majoziy ifodasi bo‘lgan mustabidlik ruhi ufurib turgan beton imoratlar bilan bog‘liq talqinlar o‘rin olgan.

²⁰ Бушмин А.С. Преемственности в развитии литературы. – Ленинград: Художественная литература, 1978. – С.62.

Luqmon Bo‘rixonning “Quyosh hali botmagan” qissasi nomlanishidayoq tabiatning go‘zal va sehri pallasini – quyosh botishi arafasidagi taxminan qirmizi ufq, oq bulutlarning ohista qizara boshlashi kabi so‘lim manzara ruhini xayol qilishi bilan e‘tiborni tortadi. Faslda ushbu asarning g‘oyalari, kompozitsiyasi, qahramonlar nutqi, muallif mahorati, ramziylikka alohida diqqat qaratildi.

Asarda muallif shaklan o‘xshash jumlar takrorini mahorat bilan qo‘llaydi. O‘n sakkiz qaytariq aslida ma‘lum simvol ifodaga xizmat qilgan. Ayrimlari: “*Biz hali Absal polvonni tanimas edik*” jumlasini yoshlarning hali hayotni, oq-u qorani tanimasligi, kelajak vazifalarini anglamaganliklarini; “*Biz Absal polvonni tanidik, bildik*” jumlasini ikki do‘stning o‘z ustozini, orzularini, chin sevgini topganligini, xatolarini tuzatishni; “*Biz Absal polvondan uzoqlashgan edik*”, “*Biz Absal polvonni unutgan edik*” jumlasini o‘z orzulari, bolalik dunyosi, maqsadlari yo‘lidan ortga qaytishni, ishq-u do‘stlikning turli sinovlarga uchrashi, ustozini unutishning ramziy ifodasidir. “Bu qaytariqlar qissa qahramonlarining hayotni, atrofdagi odamlarni, oxir-oqibatda o‘zlarini anglash darajalaridagi tadrijiy bosqichlarni aks ettiradi”²¹, – deya adabiyotshunos Q.Yo‘ldosh haqli mazmunda jumlaning izohlaydi.

Yana bir muhim ramziylik bu asar sarlavhasidir. “*Quyosh hali botmagan*” degani bu – hayot hali tugamagan, yaxshi insonlar ko‘p, hali kurash davom etadi, chin muhabbat, do‘stlik hech zamon o‘lmagan, haqiqat hali mavjud, orzular hali intiho topmagan, nihoyat, go‘zallik hali o‘lmagan degan chuqur hayotiy xulosalarning badiiy in‘ikosini ifoda etadi.

Badiiy voqelikda ramziylikdan foydalanish “O‘lis qo‘rg‘on fuqarosi”da ham mavjud. “Qo‘rg‘on” tushunchasi – ko‘ngil, muqaddas makon, birinchi muhabbat, bola orzulari, sabr, go‘zal xotiralar, yoshlik ma‘nolarini; “Yuragingni chorlar yiroqlar” (U.Azim) epigrafi tor ma‘noda – qishlog‘i, atrofdagi insonlardan zerikish, ustozining tashqi hovlisini; keng ma‘noda ertangi kunga ishonchni, bola orzularini, kelajakdagi eng oliy maqsadining simvollik ma‘nolarini ifodalaydi. Domlaning “fizika” so‘zini alohida urg‘u bilan aytishi uyg‘onish davrida qoralangan J.Bruno, G.Galiley, N.Koperniklarning olamshumul yangiliklari haqida ramziylik tashiydi.

Bobning so‘nggi fasli “*Qissa janrida badiiy xarakter va kontrast usuli*” deb nomlanib, xarakter yaratish, talqinida kontrastning o‘rni, zamonaviy qissalarda uning tadriji haqida fikrlar berilgan. Bu ikki atama ilmiy sharhlangan.

A.Yo‘ldoshning “Osmon og‘ushi” qissasi milliy xalq hayotida kamdan kam uchraydigan yoshlarning aviatsiya tizimiga, uchuvchilik kasbiga qiziqishlari masalasiga bog‘liq asar. Bu mavzuda jahon adabiyotida A.S.Ekzyuperining “Tungi parvoz”, “Harbiy uchuvchi”, “Kichkina shahzoda”, A.Azimovning “Koinot oqimlari”, R.Bredberining “Marsga hujum” kabi mashhur asarlari yaratilgan. Yozuvchi qissaning bosh qahramoni – yetakchi obrazi Erali nomining mazmuniga ham ramziy ma‘no yuklagan. Erali – nomning tagmatnida: “Er” – er yigit, mard yigit, demak, barcha mashaqqatlarni yengib o‘tadigan navqiron, g‘ayratli yigit ma‘nosiga ega; “Ali” – musulmon olamining ilohiy qudratli siymolaridan biri,

²¹ Йўлдош Қ. Бадий қамолот йўли. Бўрихон Л. Қуёш ҳали ботмаган. Қиссалар ва ҳикоялар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015. – Б.8-9.

to‘rtinchi sahoba Hazrat Ali ibn Abu Tolib nomiga taassub qilib tanlangan nom qismi; demak, yozuvchi ilohiy mujdaga tayangan.

Muallif asar mazmunini tashiydigan adabiy detallarni: Ajinako‘prik, samolyot, osmon, ot, ba‘zi xalq o‘yinlarini olib kirgan. Yozuvchi hali bolaligidayoq qarama-qarshiliklarga duch kelgan Erali timsolining xarakter sifatida shakllanish jarayonlarini hayotiy voqelik ko‘lamida, chuqur psixologik tadqiqot, kontrast poetikasi yordamida talqin qilish yo‘lidan borgan. Professor Uzoq Jo‘raqulov o‘zining nazariy masalalarning teran tahlilidan iborat “Hududsiz jilva”sida yozganidek, “ekzistensializm ta‘limotiga ko‘ra “o‘z holiga tashlab qo‘yilgan”, “yaratilgan-u unutilgan”, ya‘ni mutlaq “ozod” inson o‘zining mavjudligini individum funksiyasi (borligi – ekstensiyasi) orqali belgilashi lozim. Har qanday tashqi ta‘sir (e‘tiqodiy, ma‘naviy-axloqiy, ijtimoiy normalar) inson-ekzistensiya tomonidan so‘zsiz inkor etiladi”²². Eralining xakteri shu nazariy qonuniyatga yaqinligini his etamiz. Uning o‘zini jarlikka otib, yaxshisi bu yovuz dunyodan xalos bo‘lishi haqidagi salbiy xayollardan qutilib qolishi ham bunga asosdir.

“Osmon og‘ushi”da qahramonlararo kontrastlar, dastlab maktab yillari Sobir, Usmon kabi ko‘rolmas “do‘stlar” bilan o‘rtadagi ziddiyatlar, keyinchalik aviatsiya bilim yurtidagi o‘zaro raqobatlar, ish jarayonida, davlat mukofoti olishgacha bo‘lgan o‘rinlarda yuzaga keladi.

Qissada oilaning osh-qatig‘iga yarab turgan sigirdan ayrilishi, chorasiz holati “Bemor” (A.Qahhor) hikoyasidagi faqir oila tasviriga uyg‘un. Farmon fermer – mingboshiga, ona holati – Qobil boboga, opa holati – Qobil boboning ayoliga mos keladi.

A.Yo‘ldoshevning asosiy qahramonlari yoshlardan iborat “Sahrodagi muhabbat”, “Begona shaharning namozshomlari” qissalaridagi obrazlar misolida vatanparvar yoshlar, o‘z kasbining, bir nechta sohaning yetuk egalari va zamon muammolari ichidagi shaxs xakteri badiiy jihatdan puxta asoslangan. Qissalardagi obrazlar misolida bugungi kun yoshlariga o‘rnak bo‘ladigan timsollar yaratilgan.

XULOSA

1. Qissa epik turning o‘rta hajmli – romandan kichik, hikoyadan katta ommabop janri hisoblanadi. XX – XXI asrlar mobaynida Markaziy Osiyo, jumladan, o‘zbek adabiyotida mumtoz adabiyotdagi, asosan, afsonaviy xakterdagi qissalar (jangnomalar, o‘g‘uznomalar, islomiy-ma‘rifiy qissalar kabi) negizida ko‘proq Yevropa adabiyotida bevosita shakllangan realistik qissalar an‘anasi sifatida mazkur janr namunalari vujudga keldi va katta taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi; Yevropa va rus adabiyotida, “povest” deb atalgan bu janr namunalari o‘zbek adabiyotining XX asr 20 – 60-yillar mobaynida ham “povest” termini bilan atalib kelindi.

2. Istiqloq davri o‘zbek qissachiligi taraqqiyotida munosib asarlar yaratishda Sh.Xolmirzayev, M.M.Do‘st, X.Do‘stmuhammad, X.Sulton, G‘.Hotamov, Sh.Bo‘tayev, E.A‘zam, A.A‘zamlar qatorida L.Bo‘rixon va A.Yo‘ldoshev kabi iste‘dodli qissanavislarning ham munosib hissasi va ulushi mavjud. Ta‘kidlash

²² Жўрақулов У. Ҳудудсиз жилва (илмий-адабий мақолалар). – Тошкент: Фан, 2006. – Б.5-6.

joizki, faqat bu ikki iste'dod egalarining ijod mahsullari, mahorat qirralari mazkur tadqiqotda fundamental ilmiy keng tahlil qilindi.

3. Luqmon Bo'rixonning "Jaziramadagi odamlar", "Imom Moturudiy", "Temir yo'l", "Ismoil" kabi romanlari, "Xizr ko'rgan yigit", "Qidiruvdagi qiz", "Sirli muallim", "Bir tomchi yosh", "Quyosh hali botmagan" singari qissalari, o'nlab hikoyalari o'z o'quvchilari – ixlosmandlariga ega, bu asarlar, jumladan, qissalari zamonaviy mavzularning ko'tarilganligi, badiiy jozibasi, tilining tiniq, milliy uslublari bilan o'ziga xoslik kasb etganligi aniqlangan.

4. Abduqayum Yo'ldoshev o'zining "Sharaf yo'li", "Kasofat raqamlar", "Daryo" romanlari, "Sunbulaning ilk shanbasi", "Shoirning muhabbati", "Ishq sadolari va gadolari", "Yulduzning yo'li", "Otchopar yoxud o'n uchinchi uy", "Jadid", "Gudbay, Amerika!", "Osmon og'ushi" nomli qissalari, bir necha hikoyalari bilan istiqlol davri yangi o'zbek nasri rivojida o'z o'rniga egaligi dalillandi.

5. Badiiy adabiyotning o'zak masalasi – inson obrazi va uni mukammal xarakter darajasida talqin qila olish vazifasi nuqtayi nazaridan qaraganda, L.Bo'rixon va A.Yo'ldoshev qalamiga mansub qissalardagi betakror xarakterlar galereyasi mustaqillik davri yangi o'zbek nasrining o'ziga xos yutuqlari sanaladi: Baxtiyor, Georgiy, Rajab ("Bir tomchi yosh"), Norsoat, Davron, Tanzila ("Quyosh hali botmagan"), Najot G'aybulla, Qalqonov muallim ("Sirli muallim"), Nozim, hamxona yigit, Oltinoy ("Shoirning muhabbati"), Nodir, Sobir, Davronbek, Zarifa, Jamila, Tal'at ("Gudbay, Amerika!"), Ubaydulla Xo'jayev ("Jadid"), Abdiqayum, Dovdir, ya'ni oshiq yigit ("Sunbulaning ilk shanbasi") kabi yetuk xarakterlar o'zbek qissachiligining betakror obrazlar silsilasi bo'lganligi isbotlandi.

6. Ramziylik, ko'p qatlamlilik, majoziylik – adabiy asarlarning, san'at namunalarining ta'sirchanlik, jozibadorlik o'zaklaridan biri sifatida xarakterlanadi. Bu L.Bo'rixon va A.Yo'ldoshev asarlarining muhim xususiyatlaridan ekanligini isbotlaydi. A.Yo'ldoshevning "Otchopar yoxud o'n uchinchi uy" qissasidagi 9 qavatli 13-uy obrazi ramziylik va majoziylik timsoli hisoblanadi; bu sho'ro tuzumining mustabidlik ramzi sanaladi. "Jadid" qissasidagi ulkan daraxt – xalq qudrati, milliy g'urur simvoli, chaqmoq – umrni, tabiat – yoshlik, go'zallikni, tuproq – Ona vatanni, daraxt – xalq qudratini ifodalaydi. "Sunbulaning ilk shanbasi"dagi sunbula – diydor, orzular ushalishi, baxt ramzi ekanligi asoslandi.

7. Luqmon Bo'rixonning "Bir tomchi yosh"dagi Baxtiyor siymosi o'tish davrida shakllanish, munosib kasb-kor egasi bo'lishga intilgan, ammo hamisha ham ishi baroridan kelmagan yoshlarning ramziy-majoziy namunasidir.

8. Istiqlol davri o'zbek nasri namunalarida ramziylik va majoziylik quyushdi hamda uslub sifatida shakllandi. Luqmon Bo'rixonning "Xizr ko'rgan yigit" qissasida asar syujeti, kompozitsiyasi, tugun va yechimida umumiy falsafiy mohiyati aks etgan. Muallif diniy-ma'rifiy mavzuni, ma'naviy meros masalalarini zamonning dolzarb ijtimoiy muammolariga bog'lab mahorat bilan yoritib bergan.

9. Milliy ma'naviy qadriyatlarni asrash, rivojlantirish, milliy xarakterlar majmuini yaratishda ham bu yozuvchilarning izlanishlari istiqlol mafkurasining targ'ibida alohida ahamiyat kasb etadi. Ikki adib yaratgan xarakterlar o'zbek va

jahon adabiyotining yetakchi obrazlari bilan bellasha oladi, ayni vaqtda milliy qiyofasi jihatidan yaqqol ajralib turishi misollar orqali ko'rsatilgan.

10. Vatanparvarlik tarbiyasining talqiniga yangi mafkuraviy to'lqinga xos ma'no-mazmun bag'ishlashda L.Bo'rixon, A.Yo'ldoshev qissalarining o'rni yuqori. Shu ma'noda xorijga pul-boyluk izlab ravona bo'lgan kishilarning turkum obrazi yaratilgan "Gudbay, Amerika!" qissasi o'ziga xos tanbeh va kinoyaviy mohiyati bilan ajralib turadi. Shuningdek, "Quyosh hali botmagan"da Absal polvon, Norsoat nutqlarida, "Olis qo'rg'on fuqarosi"da No'monning ona qishlog'iga bo'lgan sadoqatida mazkur ma'nolar bayon etilgan bo'lsa, "Jadid" qissasida vatanparvarlik tarixiy shaxs U.Xo'jayev timsolida xarakter darajasida ulug'lanishi dalillandi.

11. Badiiy asardagi obrazlarning aksariyati davr va muallifning o'zaro munosabatlarini o'zida jamlagan hamda xarakter darajasiga ko'tarila olgan personajlardir. Har qanday obraz xoh asosiy bo'lsin, xoh ikkinchi darajali qahramon bo'lsin, bu personajlarda qisman bo'lsa-da, muallif dunyoqarashi aks etadi. Ijodkor shu yo'l vositasida muhit va jamiyatga, dunyoda kechayotgan global voqea va hodisalarga o'z munosabatini badiiy-falsafiy tarzda ifodalaydi. Ikki adibning ijodiy manerasi, badiiy uslubi F.Kafka, F.Dostoyevskiy, A.Kamyu, Ch.Aytmatov, Oybek, A.Qahhor, A.Muxtor, S.Ahmad uslublariga mushtarakligi ochib berilgan.

12. Qissalardagi sarlavha va epigraflar asar kompozitsiyasining mahorat bilan ishlanganidan dalolat beradi. "Quyosh hali botmagan", "Olis qo'rg'on fuqarosi", "Xizr ko'rgan yigit", "Bir tomchi yosh", "Sunbularning ilk shanbasi", "Yurakdagi iz", "Begona shaharning namozshomlari", "Otchopar..." degan nomlar shunchaki kitobxon yoxud munaqqid diqqatini tortish uchun qo'yilmagan. Balki, ular qissa voqealarining falsafiy mohiyatiga urg'u berishi qayd etilgan.

13. A.Yo'ldoshev, L.Bo'rixonning xarakterni aks ettirishda kontrastlardan foydalanishi o'ziga xos uslubga aylanib bormoqda. Xususan, Abduqayum Yo'ldoshevning "Osmon og'ushi", "Begona shaharning namozshomlari", "Sahrodagi muhabbat" kabi qissalari bu borada alohida ahamiyatga ega. Ularning bosh qahramonlari fe'l-atvor, xarakter nuqtayi nazaridan zid tarzda yaratilgan bo'lib, hayotdagi insonlarning aksi sifatida dunyoga kelgan, bu shaxslarning ruhiyati, tabiati, psixologiyasi va his-tuyg'ulari hayotiy haqiqat mezonlari bilan mutanosib talqin etilganligi asoslangan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc. 03/05.05.2023.Fil.02.11
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
САМАРКАНДСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ
ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА**

НАВОИЙСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

НИЗОМОВ ФАРХОД МУСО УГЛИ

**СОЗДАНИЕ СИМВОЛИКИ И ХАРАКТЕРА В ПОВЕСТЯХ ЛУКМАНА
БУРИХАНА И АБДУКАЮМА ЮЛДАША**

10.00.02 – Узбекская литература

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

Самарканд – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей Аттестационной Комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за №В 2020.4.PhD/Fil1496.

Диссертация выполнена в Навоийском государственном университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на веб-странице Научного совета www.samdu.uz и на Информационно-образовательном портале “Ziyonet” (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	Холмуродов Абдухамид доктор филологических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Насиров Азимиддин Нормаматович доктор филологических наук, профессор Юлдашев Козокбой Бойбекович доктор педагогических наук, профессор
Ведущая организация:	Джизакский государственный педагогический университет

Защита диссертации состоится “___” _____ 2025 года в _____ часов на заседании Научного совета DSc. 03/05.05.2023.Fil.02.11 по присуждению ученых степеней при Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова. (Адрес: 140104, г.Самарканд, Университетский бульвар, 15. Тел.: (8366) 239-11-40, 239-18-92; факс: (8366) 239-11-40; e-mail: rector@samdu.uz. Самаркандский государственный университет, Главный корпус, комната 105).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова (зарегистрирована за № _____). Адрес: 140104, г.Самарканд, Университетский бульвар, 15. Тел.: (8366) 239-11-40, 239-18-92; факс: (8366) 239-11-40.

Автореферат диссертации разослан “___” _____ 2025 года.
(Протокол рассылки № _____ от “___” _____ 2025 года).

Ш.А. Хасанов

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор фил. наук, профессор

Д.Б. Хурсанов

Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии по фил.наукам (PhD), доцент

Н.М. Мухитдинова

Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор фил. наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы исследования. В мировом литературоведении растёт интерес к раскрытию генезиса и развития жанра повести, эволюции в ней характеров, мастерства писателей в выборе образов, симфонии образов, изображению социальной среды, движения пространства и времени, народности и традиционализма, акцента на восприятии героя, недостаточности описания статичных объектов, отсутствия широкого описания действительности и опоры на образы в передаче основной идеи. В связи с этим в литературоведении приобретают актуальность совершенствование сюжета и композиции в повести позднего периода, фундаментальные основы творческих течений, зарождающихся в литературных школах Запада и Востока, связь потока сознания с изменениями в психике героя, индивидуальность стиля, обострение проблемы художественного синтеза в повестях позднего периода, влияние переводов.

В мировом литературоведении ведутся научные исследования по определению жанрового потенциала повести, которая сочетает в себе отдельные стороны жанра романа, систему образов, характер и психику, творческое мастерство, современную и историческую тематику. Каждое произведение – это отдельное творческое явление, в котором, наряду с общими чертами, существуют тонкие различия, присущие только автору и данному произведению. Это объясняется своеобразием художественного мышления, приоритетом индивидуальности в искусстве, условными границами частного и типичного. В силу этого существует постоянная потребность в изучении жанра повести на примере каждого отдельного стиля. Тематический охват и идейно-художественные особенности узбекских повестей периода независимости, мастерство создания образов, социальные ценности, выступающие в качестве основной темы, яркое проявление психологизма в повестях настоящего периода, а также оценка с точки зрения творческих течений считаются одной из актуальных задач современного литературоведения.

В нашей стране в последние годы расширились новые подходы к художественному восприятию действительности, литературному стилю и возможностям художественного мышления. Традиция основных принципов мировой литературы приобрела особое значение в годы независимости. Литературоведение стало научно-теоретически изучать особенности этих принципов в нашей национальной литературе. Художественное осмысление действительности с помощью неординарных художественных находок и символических образов в созданных и создаваемых писателями произведениях расширяет горизонты мысли, усиливает сближение литературы с реальной жизнью, художественной реальности с жизненной реальностью, расширяет горизонты художественного мышления. Особо следует отметить, что в этом большое значение имеет внимание к творческим деятелям. Как подчеркнул наш Президент Ш. Мирзиёев: «Внимание к

литературе, искусству, культуре – это, прежде всего, внимание к нашему народу, внимание к нашему будущему. Как говорил наш великий поэт Чулпон, мы не имеем права забывать, что если литература и культура будут жить, то будет жить и нация»²³. Исходя из этого программного вывода, задача литературной критики — изучать новации, происходящие в современной литературе, принципы самобытного художественного мышления, секреты творческого мастерства, оценивать достижения современного литературного процесса.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, намеченных в Указах и Постановлениях Президента Республики Узбекистан: Указ Президента Республики Узбекистан №УП-5847 от 8 октября 2019 года «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», Указ Президента Республики Узбекистан №УП-6097 от 29 октября 2020 года «Об утверждении Концепции развития науки до 2030 года», Указ Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», Указ Президента Республики Узбекистан № УП-5850 от 21 октября 2019 года «О мерах по кардинальному повышению роли и авторитета узбекского языка в качестве государственного языка», Постановление Президента Республики Узбекистан за №ПП-3271 от 13 сентября 2017 года «О программе комплексных мер по развитию системы издания и распространения книжной продукции, повышению культуры чтения», а также в других нормативно-правовых документах Республики Узбекистан, касающихся данной сферы деятельности.

Связь исследования с приоритетными направлениями развития науки и технологий республики. Научно-исследовательская работа выполнена в рамках приоритетного направления развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социально-правовом, экономическом, культурно-духовном и образовательном развитии информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. Прделана ценная работа по изучению принципов нового художественного творчества в мировом искусстве слова, реалистической интерпретации символических образов, особенностей современного литературного процесса, прошлого опыта и традиций. В исследованиях таких писателей и ученых, как Р. Барт, Ж.-П. Сартр, Ф. Ницше, Т. Элиот, творческие принципы, сформировавшиеся в литературно-художественной мысли Запада и Востока, особенности таких литературных стилей, как модернизм, постмодернизм, и их различные проявления потока сознания нашли своеобразное художественное воплощение в нашей современной национальной прозе. Вхождение произведений Дж. Джойса,

²³Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёвнинг «Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий олами юксалтиришни мустақкам пойдеворидир» мавзусида Ўзбекистон ижодкор зиёлилари билан учрашувдаги маърузаси. «Халқ сўзи» газетаси, 2017 йил 4 август.

А. Камю, Ф. Кафки, П. Коэльо, Э. Кортасара и других представителей мировой литературы в художественный мир нашей национальной литературы, перевод их лучших произведений имели большое значение для повышения уровня узбекского читателя, расширения кругозора наших творческих деятелей, роста их творческого мастерства. Изменения в литературном процессе также ставят важные задачи перед литературоведением.

В своих исследованиях У.Норматов, И.Гафуров, А.Расулов, Х.Умуров, Г.Юлдашев, Г.Кахрамонов, Д.Тураев, Ю.Солиджонов, С.Мели, Х.Болтабоев, Г.Муродов, А.Косимов, Д.Куронов, И.Ёкубов, И.Ганиев, У.Журакулов, У.Хамдам, Х.Дустмухаммад, А.Отабой, А.Холмуродов, Г.Имомова, У.Расулова, Ш.Ботирова, Р.Хайдарова, Р.Кучкар, Г.Сатторова, М.Бобохонов, Д.Холдорев, Н.Чулиева, М.Жураева, М.Кучкарова, Б.Шукурова рассмотрели творческий опыт Исаджона Султана, Назара Эшонкула, Лукмана Бурихана, Абдукаюма Юлдашева, который имеет место в современном литературном процессе, в определенной степени отражает эволюцию, уникальные художественные интерпретации, символы, образы, творческие навыки.

Мысли У. Норматова²⁴ о возникновении новых принципов в современных повестях, «научные исследования А. Расулова по анализу взаимоотношений писатель и литературное произведение - читатель с точки зрения требований сегодняшнего времени²⁵, взгляды З. Исомиддинова, И. Гафурова на литературное влияние, порок копирования, влияние произведений Дж. Джойса, А. Камю и других писателей-модернистов на творчество узбекских писателей, сущность традиционализма и самобытности, их оценки изменений в современном литературном процессе»²⁶, «Значительны научные исследования и литературно-теоретические взгляды К. Кахрамонова, Ш. Давроновой, Д. Салохий на особенности новой узбекской литературы»²⁷.

Доктор филологических наук А. Холмуродов в своем исследовании по проблеме поэтики узбекских повестей высказал ценные мысли о системе образов, творческом мастерстве, жанровых особенностях повестей на современные и исторические темы в творчестве Х. Султанова, Т. Мурода, С. Аббаса, Х. Дустмухаммада, Х. Даврона»²⁸.

В диссертации доктора филологических наук, профессора У. Расуловой представлены глубокие аналитические размышления по изучению жанра

²⁴ Норматов У. Насримиз уфклари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1974; Умидбахш тамойиллар. – Тошкент: Маънавият, 2000. – Б.110.; Йўлдошев Қ. Ёник сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – Б.546.; Йўлдошев Қ. Сўз ёлкини. – Т.: Гафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. – Б.504; Қўчқорова М. Бадиий сўз ва рухият манзаралари. – Тошкент: Мухаррир, 2011. – Б.232.; Тўраев Д. Рангин тасвирлар жилоси. – Тошкент: Akademnashr, 2014. – Б.200.

²⁵ Расулов Абдуғафур. Бадиийлик – безавол янгилик. Илмий-адабий мақолалар, талқинлар, этюдлар. – Тошкент: Шарқ, 2007. – Б.96-98,101.

²⁶ Nizomov F.M. O'zbek adabiyotida qissa janriga oid ba'zi mulohazalar. "G'afur G'ulom ijodida milliy va umuminsoniy g'oyalar uyg'unligi" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari 2023-yil 26-may. –Toshkent, 2023. – B.207-214.

²⁷ Кахрамонов Қ. Адабий жараён ва эстетик талқин. – Тошкент, 2014. – Б.35-36.; Даниярова Ш. Истиклол даври ўзбек романларида миллий рух ва қахрамон. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2011. – Б.73-86.; Салохий Д. Тасаввуф ва бадиий ижод. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Наврўз нашриёти, 2018. – Б.91-108.

²⁸ Холмуродов А. Ўзбек кинсачилиги: тараккиёт муаммолари (XX аср сўнгги чораги). Филол. фан. доктори. дисс. –Т.: 2008. –Б 238.; Холмуродов А. Муқаддас сўз боқийлиги. – Тошкент: Фан, 2007.–В.96.

